

## **Til bilgan el tanir**

Dil va elni bilish aslida, tilni bilish to'la o'zlashtirishdan boshlanadi. "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti "Ingliz tili" kafedrasi tomonidan 2018 yil 21 sentyabr kuni fakultetga qarashli B-01 lingofon o'quv xonasida haftaning Juma kuni "Ingliz tili"da so'zlashish kuni tadbiri doirasida davra suhbat tashkil etildi. Tadbirda fakultet dekani O.Kucharov, dekan o'rinnbosari J.Turdiev, "Ingliz tili" kafedrasi mudiri F.Begov va kafedra professor-o'qituvchilari hamda talaba yoshlari ishtirot etdilar. Hozirgi kunda "Ingliz tili" kafedrasi qoshida "Linguist" to'garagi va arzonlashtirilgan pullik "Advanced Generation" kurslari tashkil etilgan bo'lib, "Linguist" to'garagi haftaning payshanba kuni, arzonlashtirilgan pullik "Advanced Generation" kursi esa haftaning deyarli har kuni darslar olib borilayotgani to'liq ingliz tilida ma'lumotlar taqdim etildi. To'garakda yosh iqtidorli talabalarga turli qiziqarli mavzularda bahs-munozaralar, suhbatlar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

"Advanced Generation" arzonlashtirilgan pullik kursida institutning professor-o'qituvchilari va talabalarga ingliz tili fanidan chuqur bilim berib borilmoqda. Tadbir davomida ingliz tilida qo'shiq, taqdimotlar namoyish etildi. Tadbir so'ngida ingliz tilida talaba yoshlari bilan savol-javob va suhbat bo'lib o'tdi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar olishdi.



**"SXEVaB" fakulteti dekani o'rinnbosari J.Turdiev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**